

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA INSON QADRI- BOSH TAMOIL

Mahmatova Sarafroz Dilshodbek qizi

Nizomiy nomidagi TDPU "Milliy g'oya,
ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi 303-guruh talabasi

Nigmanova Umida Bahramovna

Ilmiy rahbar:

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolaning mazmuni O'zbekiston Respublikasi Taraqqiyot strategiyasida inson qadri bosh tamoil sifatida, inson qadrini ulug'lashga yo'naltirilgan ijtimoiy himoya siyosatini ta'minlash bo'yicha belgilangan vazifalar doirasida amalga oshirilgan ishlarni yoritilgan va bu haqida tushuncha va fikrlar ham bundan o'rinn olgan hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Taraqqiyot strategiyasi, adolat, qonun, inson qadri, ijtimoiy himoya siyosati.

Yangi O'zbekiston – demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume'tirof etilgan norma va printsiplarga qat'iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do'stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo'lgan davlatadir.¹ Mana, 1991-yilda mustaqillikka qadam qo'yibmizki, yurtboshlarmiz ko'magi, xalqning orzu istaklari bilan hozirda ya'ni 2023-yilda yuksak fuqarolik va demokratik davlat darajasiga yetib keldik. 1991-2023-yillar oralig'ida yurtimizda juda ko'p, xilma-xil davlat ahamiyatiga molik islohotlar amalga oshirildi. Masalan, mustaqillikning dastlabki yillarda beshta tamoilga asoslangan "O'zbek modeli" ishlab chiqildi hamda 2017-2021-yillarga mo'ljallangan beshta ustuvor yo'nalishni o'z ichiga oluvchi "Harakatlar strategiyasi" ishlab chiqildi va o'z maqsad, vazifalaridan kelib chiqib ushbu yillarda Vatanimiz taraqqiyoti uchun sezilarli darajadagi ijobiy

¹Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. Toshkent: "O'quvchi" MU MChJ, 2021. 9-bet.

o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Ushbu harakatlar strategiyasi davomi sifatida “Harakatlar strategiyasidan-Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoili asosida 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi Taraqqiyot strategiyasi ishlab chiqildi. Ushbu strategiya yettita yo‘nalish yuzta maqsadni o‘z ichiga olgan. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasida shaxs, inson qadri yuqori o‘ringa qo‘yilib, “inson – jamiyat – davlat” degan yangi tamoyil assosida davlat va jamiyat boshqaruvini tashkil etish birinchi o‘rinni egalladi. Inson qadri – bosh tamoyil. Taraqqiyot strategiyasida asosiy e’tibor, birinchidan, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga doir qonunlar, kodekslar, konsepsiya va dasturlar qabul qilinishiga qaratilgan.

Ikkinchidan esa, unda qonun ustuvorligini ta’minlash, konstitutsiyaviy islohotni hayotga izchil tatbiq etish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, manaviyatni rivojlantirish, shuningdek, global muammolarga O‘zbekistonning munosabati, xavfsizlik va tashqi siyosat borasidagi muhim vazifalar qamrab olingan. Eng asosiysi, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasidagi yetti ustuvor yo‘nalishning bosh g‘oyasi – inson qadrini ta’minlashdir. Yana shuni eslatib o‘tish kerakki, Prezidentimizning saylovoldi dasturidagi asosiy g‘oya ham “Inson qadri uchun” tamoyili edi.

Uchinchidan, inson qadrini joyiga qo‘yishni qonuniy va tashkiliy-huquqiy yo‘llar bilan hayotimizning barcha sohalarida milliy, mintaqaviy va xalqaro hamkorlik darajalarida qanday qilib amalga oshirish kerak? Taraqqiyot strategiyasida bu dolzarb savolga juda ko‘plab aniq maqsadlarga qaratilgan amaliy javoblar berilgan.

To‘rtinchidan, Yangi O‘zbekiston tarraqqiyot strategiyasining nafaqat nomlanishi, ayni chog‘da unda belgilangan ustuvor yo‘nalishlar va muhim vazifalar ham milliy yoki mintaqaviy miqyosdagina emas, balki global darajada ulkan ahamiyatga molik xalqaro hujjatlar bilan uyg‘undir. Shuningdek yana bir ahamiyatga molik dastur haqida inson manfaatlarini haqqoniy ko‘zlab tashkillashtirilmoqda desak beziz bo‘lmaydi. Bu, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini 2022-yilda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” loyihasida **“Davlat xalqqa xizmat ko‘rsatishi shart” g‘oyasini tatbiq etishni nazarda tutuvchi “Xalqchil davlat” milliy dasturini ishlab chiqish vazifikasi belgilandi.** “Yo‘l xaritasi” loyihasida bir muhim vazifa – **Xalq qabulxonalarining huquqiy maqomini takomillashtirish masalasi**dir.

Xalq qabulxonalari faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish va ularning davlat boshqaruvi tizimidagi maqomini mustahkamlashga qaratilgan Konstitutsiyaviy qonunni qabul qilish bo‘yicha ishlarni allaqachon boshlangan. Yangi O‘zbekistonda mutlaqo yangi milliy huquqiy tizim shakllantirilmoqda va biz buni asta-asta guvohi bo‘lmoqdamiz. Bu davrda **“inson, uning huquqlari, erkinliklari, ayniqsa, qadri – eng muhim qadriyat” degan tamoil qayta-qayta e’tirof etilmoqda.** Shu tufayli ham

milliy qonunchilik va huquqiy amaliyotda “**shaxs – jamiyat – davlat**” **tamoyilini** mustahkamlash kerak. Zero, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida yillar davomida amal qilib kelgan “**davlat – jamiyat – inson**” tamoyili “**inson – jamiyat – davlat**” tamoyiliga o‘zgartirildi.¹ Xalq bilan bevosita muloqot qilish, yurtdoshlarimizning dardu tashvishlari, muammolarini ijobiy hal etish bo‘yicha mutlaqo yangi demokratik tizim – Xalq qabulxonalari o‘tgan olti yilda faoliyat yuritib kelmoqda va o‘zini oqladi. Bundan tashqari barcha davlat organlari faoliyatida “**xalq dardiga qulq solish**”, muammolarni joyida hal etish va xalqni rozi qilish bo‘yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Barcha qonunlarning asosiy prinsiplari hisoblamish- ochiqlik, shaffoflik xalq bilan ochiq muloqotning mexanizmlarini yanada takomillashtirish, muhim qarorlarni jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda qabul qilish amaliyotini kengaytirish, davlat organlariga kelib tushgan murojaatlarni ko‘rib chiqish jarayonini raqamlashtirish, murojaatlarni tezkor va sifatli ko‘rib chiqilishini ta’minlash ko‘zda tutilgandir. “Davlat xalqqa xizmat ko‘rsatishi shart” g‘oyasini tatbiq etilgan. Inson qadrini ko‘zlab amalga oshirish ko‘zda tutilgan bir qancha masalalarni siz-u biz o‘rganib chiqar ekanmiz, bunda davlat har taraflama o‘z fuqarolarining manfaatlarini ko‘zlagani diqqatimizni doim tortadi.

Xulosa sifatida shu so‘zlarini aytmoqchimanki, bu dunyoda qariyb 7 miliarddan ziyod inson istiqomat qilyapti desak, ular yashayotgan har bir davlatda ularning manfaatlari va himoyasi to‘laqonli ta’minlangan deyish oson emas. Bizning vatanimiz O‘zbekistonda esa barcha kuchlar, barcha harakatlar doimo biz insonlarni ya’ni biz fuqarolarni manfaatimizni ko‘zlab amalga oshirilgan va amalga oshirib kelinmoqdadir. Yurtimizdagи har bir qonun inson qadrini o‘ylab tuzilishi esa bu bizning eng buyuk yutug‘imiz va imkonimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston Demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. Toshkent: ”O‘quvchi” MU MChJ, 2021. 9-bet.
2. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>